

## ОЛИЙ ЎҚУВ ЮРТЛАРИДА ДАРС ТАҲЛИЛИНИНГ МЕТОДИК АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

*Xalmuratova Jumagul Gaybullayevna*

*Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti  
"Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat" kafedrasi dotsenti,  
pedagogika fanlari buyicha falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada dars tahlilini, ularga quyiladigan pedagogik talablar va metodik asoslarini takomillashtirish ilmiy muhokama qilingan.

**Tayanch soʻz va iboralar:** Dars kuzatuv va tahlili, pedagogik mahorat, metodologik asoslari, texnologiya, tuzilma, motivlar, kasbiy faoliyat.

**Аннотация.** В данной статье научно обсуждаются вопросы совершенствования анализа урока, педагогические требования и методические основы к ним.

**Ключевые слова:** Анализ и наблюдение урока, педагогическое мастерство, методологические основы, технология, структура, мотивы, профессиональная деятельность.

**Annotation.** This article scientifically discusses the issues of improving the analysis of the lesson, pedagogical requirements and methodological foundations for them..

**Key words:** analysis and observer of lesson, pedagogical skill, methodological basics, technology, structure, motive, professional of work

Dunyo miqyosida o'quv jarayoni nazariy bilimlar berishdan olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish, axborot texnologiyalari asosida talabalarda mustaqil ta'lim olish malakalarini shakllantirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda jumladan, oliy ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalar tatbig'iga asoslangan dars tahlili va uning metodikasini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Bu borada o'qituvchi-murabbiy talaba shaxsining ma'naviy-axloqiy dunyosini o'zgartirish, unga pedagogik ta'sir ko'rsatish orqali undagi bor imkoniyat va qobiliyatlarni yuzaga chiqarish, ijtimoiy faol va malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor berilmoqda.

Pedagogik jarayonni yaxlit integrativ tizimdan iborat bo'lib, shaxsning aqliy, axloqiy, ruhiy, jismoniy ya'ni tushunish, qo'llash, va baholash darajasini yangi sifat bosqichiga ko'taradi. Barcha sohalarda bo'lgani kabi, ayniqsa, ta'lim-tarbiya yo'nalishda innovatsion texnologiyalarning tatbiqi ma'lum stereotiplardan xoli bo'lishga olib kelmoqda. Dars tahliliga oid kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, o'qituvchi va talaba darsning tashkiliy qismiga qanchalik puxta va mas'uliyat bilan hozirlik ko'rsa, dars shunchalik mazmunli va samarali bo'ladi [1].

Dars – ta'lim jarayonining asosiy shakli. Dars – bevosita o'qituvchi rahbarligida muayyan o'quvchi va talabalar guruhi bilan belgilangan vaqt oraligida olib boriladigan mashg'ulot turi.

**ADABIYOTLAR SHARHI.** Jahonning rivojlangan davlatlarida, xususan AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Janubiy Koreyaning rivojlanish garovi bo'lib inson omilini kuchaytirishga qaratilgan investitsiyalash, ya'ni inson salohiyati taraqqiyoti, xususan aholi ta'lim darajasining oshishi va yosh kadrlarning professional tayyorgarligi, oliy ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalar tatbig'iga asoslangan dars tahlili va uning metodikasini o'rganish eng dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu jumladan, mamlakat va mintaqalarning ustuvor iqtisodiy o'sishini ta'minlashning yo'li zamonaviy bosqichda aynan ta'lim sifatini oshirishda sohadan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Zamonaviy darslarning pedagogik-psixologik mohiyati shu narsani ko'rsatmoqdaki, ta'lim-tarbiya jarayonida talaba subyekt sifatida mustaqil faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo'lmasa, ijodiy qobiliyat, ta'lim samaradorligi va ma'naviy-kasbiy komillikka intilish kutilgan natijani bermaydi. Jumladan, ta'limni modernizatsiyalashtirishni dars jarayonida o'quvchi yoki talabaning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish bilangina hal etib bo'lmaydi. Uni egallayotgan kasbiga bo'lgan munosabati hamda ma'naviy-axloqiy qiyofasining shakllanganlik darajasi, intellektual qobiliyati, tanlagan kasbiga qiziqishi, kasbiy mas'uliyat va javobgarlikni oldindan his etish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, shaxsiy tashabbuskorlik va ilmiy-innovatsion yondashuv kabi xususiyatlar uyg'unligi, o'qituvchi darsining tahlili texnologiyasi hamda shu asosida beriladigan tavsiyalarga muvofiq yuzaga chiqadi.

Dars kuzatish va tahlil qilish orqali o'quvchilarning umumiy tayyorgarligi, bilim olishdagi faoliyati, o'quv faniga bo'lgan qiziqishi, diqqat bilan ishlashi, matn, xarita, jadval, asboblardan bilan mustaqil ishlay bilishi, o'qituvchiga bo'lgan munosabati aniqlanadi. Shu bilan birga o'qituvchining faoliyati ham tahlil qilinadi. Chunonchi, o'qituvchining o'quv dasturi materiallarini bilish darajasi, yangi mavzuni tushuntirish jarayonida asosiy fikrni ajratib olishi, ilmiylik va soddalik, ko'rgazmalilik tamoyillariga rioya qilishi, dars maqsadini to'g'ri qo'yishi, dars jarayonini to'g'ri rejalashtirishi, darsda hamkorlikka erisha olishi, bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni nazorat etishi, o'quvchilar bilan yakka va jamoada ishlashni tashkil eta bilishi, dars mobaynida vaqtdan unumli foydalanishi va pedagogik muomala madaniyatini egallaganlik darajasi kabi jihatlar inobatga olinadi[1].

Pedagogik faoliyatda amalga oshirilgan ko'p yillik ish tajribalari va kuzatishlar, o'qituvchi hamisha o'z ustida ishlashi, bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirib borishi lozimligini ko'rsatadi. O'qituvchi pedagogik mahoratining kundan-kunga o'sib borishi, o'quv jarayonida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llay olishining kuchayishi uning pedagogik faoliyatida amalga oshadi. O'qituvchi faoliyatining qanchalik samarali ekanligini, uning mahoratini kuzatish, o'tayotgan darslarini tahlil qilish orqali bilish mumkin. Dars tahlili – o'quv jarayonini bir butun yaxlit holda yoki muayyan bo'laklarga bo'lib baholash[2].

**TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL.** Dars tahlili

– bu tekshiruvchi, o'quv muassasasi rahbari, metodistning ijodkorligi, novatorligi bo'lib, u faqat o'qituvchi mehnati natijasini baholabgina qolmay, uni tarbiyalaydi, o'qituvchini bilim va mahoratini kengaytiradi, yangi ish shakli va metodlarni egallashga ko'maklashadi. Shu sabab, o'qituvchi darsiga kirish va tahlil qilishni maqsad qilib qo'ygan pedagog, avvalambor, dars tahliliga kirguncha, dars tahliliga kirish va uni kuzatish vaqtidagi hamda dars tugagandan keyingi harakatlarni aniq belgilab belbilab olishi kerak.

Dars tahlili kasbiy pedagogik faoliyat mazmunida uzluksiz pedagogik ta'lim nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishning asosiy shakli ekanligi oldingi boblarda o'rganildi. Yakunlovchi eksperimentga oid olib borilgan tadqiqot jarayonida dars tahlili mazmunida shaxsga yo'naltirilgan mustaqil ta'lim texnologiyasi dinamikasi 4 ta omil bilan chambarchas bog'liqligi aniqlandi. Bular:

1) innovatsion texnologiyalarning nazariy-amaliy mukammalligi, tajribada sinab ko'rilganligi va milliy-mahalliy sharoitga mosligi;

2) innovatsion yondashuvga oid tegishli shart-sharoitlar, ya'ni har bir fanning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, o'quv reja va dasturlarda pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari tatbiqining aks etishi, moddiy-moliyaviy hamda tashkiliy-pedagogik ishlarni yo'lga qo'yilganligi;

3) ijtimoiy va pedagogik-psixologik metodlar samaradorligi hamda pedagogik jamoaning innovatsion potentsiali;

4) rahbar shaxsini innovatsion texnologiyalar tatbiqiga bo'lgan munosabati, unda kasbiy hamda rahbarlik salohiyatining uyg'unligi.

Nazariy ma'lumotlarning amaliy ifodasi o'laroq shaxsga yo'naltirilgan mustaqil ta'lim texnologiyasida o'qituvchi va talaba o'rtasida ijodiy hamkorlik munosabatlari qaror topadi[3]. Bu munosabatlarda avvalo:

- "subyekt-subyekt" munosabatlari, ya'ni o'zaro tenglik, hamfikrlik, ijodkorlik hamda ijtimoiy faollik shakllanadi. Talaba tomonidan bajarilgan mustaqil ishlar monitoringi kafedra mudirlari, ekspertlar guruhi hamda ta'lim muassasasi rahbariyati tomonidan olib boriladi.

- talaba majburiy itoatkorlik, tanqid va ortiqcha ruhiy toliqishlardan holi bo'ladi hamda vaqt tejamkorligiga e'tibor qaratiladi;

- ayni paytda talabaga o'qituvchining ishtirokisiz mustaqil ravishda bilim, ko'nikma va malakalarni egallash bo'yicha tegishli shart-sharoitlar yaratib beriladi (kompyuter sinfi, internet, multimedia va ARM xizmatlari va boshqalar).

- erkin-ijodiy muhitda o'quvchilarning 32 foizi, talabalarning 56 foizi o'z-o'ziga talabchan bo'lishi; o'z-o'zini taftish va tahlil qilish o'quvchilarda 18 foiz, talabalarda 31 foiz; o'z-o'zini tahlil etish o'quvchilarda 27 foiz, talabalarda 48 foiz; o'z-o'ziga baho berish o'quvchilarda 26 foiz, talabalarda 43 foizga qayd etilganligi mustaqil ta'limni o'z-o'zini tarbiyalashdagi mavqeni tobora ortib borayotganligini ko'rsatdi.

**XULOSA VA MUNOZARA.** Oliy o'quv yurtida olib borilgan dars tahlililari, aniqsa, bo'lajak mutaxassislarda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda innovatsion texnologiyalar tatbiqining o'zni tobora ortib

borayotganligini ko'rsatdi. Shundan kelib chiqib, tadqiqot jarayonida biz ko'rib o'tilgan omillar asosida shaxsga yo'naltirilgan mustaqil ta'lim shunchaki "uyga vazifa"ni bajaruvchi xarakterdagi an'anaviy topshiriqlarga o'xshab qolmasligiga e'tiborni qaratdik. Bu o'rinda 70 foizga yaqin o'qituvchi o'quvchini o'zi tanlagan yo'ldan chiqarmaslikka harakat qilishi aniqlandi. Ikki tomonlama jarayonda o'qituvchining cheklangan fikr doirasi, ya'ni dastur va darslik talabidan chiqib keta olmasligi, oqibatda, o'quvchi fikrini muayyan qolipga tushib qolishiga olib kelishligi ma'lum bo'ldi[4]. Bu munosabatlar natijasi o'laroq, talaba o'zining mustaqil qaroridan ko'ra ko'piroq o'z g'alar fikrini eshitishni afzal ko'radi. Ayniqsa o'qituvchi tomonidan qabul qilingan qarorlarni ijro etishni majbur deb biladi. Ammo ijro samaradorligi ko'zga tashlanmaydi. Chunki bu jarayonda talaba shaxsining individual imkoniyatlari yetarli darajada ochilmay qoladi.

1. Har bir jamiyat kelajagini belgilovchi omillardan biri ta'lim tizimi hisoblanib, ta'lim jarayonining asosiy vazifasi talabani ilmiy bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, fikr yuritish, ongli xulq-atvor hamda muomala madaniyatini shakllantirishdan iborat.

2. Dars tahlillari yuzasidan ilmiy-amaliy samaradorlikka erishishi maqsadida bo'lajak mutaxassisning tanlagan kasbiga munosabati masalasini oqilona hal etish lozimligi maqsadga muvofiq deb topildi. Chunki innovatsion texnologiyalar tatbiqining asosiy mohiyati talabani fanga qiziqtirish, ta'lim-tarbiyaviy faolligini oshirish negizida kasbga to'g'ri va ongli ravishda yo'naltirishni ta'min etish nazarda tutilgan. Yuqoridagi tahlillar o'laroq o'qituvchi asosan dars beruchilik funksiyasi bilan cheklanib qolmasligi lozim.

3. Bilim egallashga intilish talabani o'z "meni"ni anglash, uni mukammallashtirish va shu asosida shaxslararo munosabatni to'g'ri o'rnata olish tajribasini shakllantiradi. Munosabatlar muvazanati shaxsning individual-ruhiy xususiyati, qobiliyati hamda xohish-istagi asosida vujudga keltirilsa, ayniqsa bu jarayonda tegishli metod va usullar to'g'ri tanlansa, hamkorlik, hamjihatlik va do'stona munosabatlar vujudga kelib, ko'plab muammolar ijobiy yechimlarga ega bo'ladi.

### Adabiyotlar

1. Qobilov SH. Tadjixanov B. Ma'ruzalarni tayyorlash va o'qish mazmuni hamda shakliga qo'yiladigan metodik talablar. – Toshkent, 2006.
2. Иохвидов В.В. Анализ урока: новый формат требований. / Вестник Красноярского государственного педагогического университета имени В.П.Астафьева. 2021. – С. 18.
3. Chicherina Y., Nurkeldiyeva D. Bondareva YE. Mutaxassislik fanlarni o'qitish metodikasi. T.: "Fan va texnologiyalar, 2013y
4. Medvedeva, T.Y.aEmail Author, Vaskina, A.V.bEmail Author, Sizova, O.A.A the problems of designing the professional development of scientific and pedagogical personnel in modern conditions Volume 34, Issue 4, July-August 2018, Pages 39-44.